



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

UO'K 618.3-06:616.98:578.828.6-036.22

O'ZBEKISTONDA AYOLLAR ORASIDA OIV-INFEKSIYASINING TARQALISH TENDENSIYALARI VA EPIDEMIOLOGIYASI



Kalniyazova Inobatxon Bayramovna

PhD, Toshkent davlat tibbiyot universiteti Epidemiologiya kafedrasi

assistenti, Toshkent, O'zbekiston

kalniazovainabat@gmail.com

ORCID: 0009-0005-3636-1689

Tel.: (91) 575-17-71

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasida ayollar orasida OIV-infektsiyasi tarqalishining retrospektiv epidemiologik tahlili natijalari keltirilgan. Tadqiqot davomida epidemik jarayonning hududiy va jins tarkibi bo'yicha nomutanosibligi hamda uning ijtimoiy-tibbiy omillar bilan o'zaro bog'liqligi aniqlangan. O'tkazilgan tahlillar OIV-infektsiyasi bo'yicha epidemik vaziyat hududlarning demografik xususiyatlariga ko'ra turlicha ekanligini, hozirgi vaqtda infeksiyaning jinsiy yo'l bilan yuqish mexanizmi yetakchilik qilayotganligini hamda asosan aholining mehnatga layoqatli, reproduktiv yoshdagi qatlami orasida ko'proq qayd etilayotganligi aniqlandi. Erkaklar orasida kasallanishning yuqori intensivlik ko'rsatkichlari profilaktika tizimini «genderga yo'naltirilgan yondashuv» tamoyili asosida takomillashtirish zarurligini taqozo etmoqda. OIV-infektsiyasining profilaktikasini takomillashtirishda reproduktiv salomatlik xizmatlari bilan integratsiyalashgan model va maqsadli strategik dasturlarni ishlab chiqish kerakligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: OIV-infektsiyasi, retrospektiv epidemiologik tahlil, epidemik jarayon, genderga yo'naltirilgan yondashuv, urbanizatsiya, reproduktiv salomatlik, integratsiyalashgan profilaktika.

ТЕНДЕНЦИИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ И ЭПИДЕМИОЛОГИЯ ВИЧ-ИНФЕКЦИИ СРЕДИ ЖЕНЩИН В УЗБЕКИСТАНЕ

Калниязова Инобатхон Байрамовна

Ташкентский государственный медицинский университет, г. Ташкент, Узбекистан

Аннотация. В данной статье автором представлены результаты ретроспективного эпидемиологического анализа распространения ВИЧ-инфекции среди женщин в Республике Узбекистан. В ходе исследования выявлена диспропорция эпидемического процесса по территориальному и половому составу, а также его взаимосвязь с социально-медицинскими факторами. Проведенный анализ показал, что эпидемическая ситуация по ВИЧ-инфекции варьируется в зависимости от демографических особенностей регионов. Установлено, что на современном этапе доминирует половой путь передачи инфекции, а заболеваемость в основном регистрируется среди населения трудоспособного и репродуктивного возраста.



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

Высокие показатели интенсивности заболеваемости среди мужчин диктуют необходимость совершенствования системы профилактики на основе принципа «гендерно-ориентированного подхода». В работе обоснована целесообразность разработки моделей, интегрированных с услугами по охране репродуктивного здоровья, и целевых стратегических программ для повышения эффективности профилактики ВИЧ-инфекции.

Ключевые слова: ВИЧ-инфекция, ретроспективный эпидемиологический анализ, эпидемический процесс, гендерно-ориентированного подхода, урбанизация, репродуктивное здоровье, интегрированная профилактика.

TRENDS AND EPIDEMIOLOGY OF HIV INFECTION AMONG WOMEN IN UZBEKISTAN

Kalniyazova Inobatxon Bayramovna

Tashkent State Medical University, Tashkent, Uzbekistan

Abstract. In this article, the author presents the results of a retrospective epidemiological analysis of the spread of HIV infection among women in the Republic of Uzbekistan. The study identifies disparities in the epidemic process based on territorial and gender composition, as well as its correlation with socio-medical factors. The analysis revealed that the epidemiological situation regarding HIV infection varies according to the demographic characteristics of the regions. It was established that the sexual transmission route is currently predominant, with the infection primarily being recorded among the working-age and reproductive-age segments of the population. High intensity rates of the disease among men necessitate the improvement of the prevention system based on the principle of a «gender-oriented approach». The study substantiates the need to develop strategic programs and integrated models with reproductive health services to enhance the effectiveness of HIV prevention.

Key words: HIV infection, retrospective analysis, epidemic process, gender-oriented approach, urbanization, reproductive health, integrated prevention.

KIRISH: Bugungi kunda OIV-infeksiyasi global miqyosda eng dolzarb tibbiy-ijtimoiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu infeksiya nafaqat sog'liqni saqlash tizimi uchun, balki jamiyatning demografik, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. So'nggi yillarda kasallikning epidemiologik xususiyatlarida muhim o'zgarishlar kuzatilib, ayniqsa ayollar orasida infeksiya tarqalishining ortib borishi alohida e'tibor talab etmoqda. Ayollar orasida OIV-infeksiyasining kengayib borishi bir qator omillar jumladan ijtimoiy omillar ya'ni gender tengsizlik, iqtisodiy qaramlik, oilaviy va jinsiy zo'ravonlik, past darajadagi tibbiy savodxonlik, migratsiya jarayonlari, xulq-atvor omillari hamda sog'liqni saqlash xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi muhim o'rin tutadi. Bundan tashqari, ayollarning biologik jihatdan infeksiyaga nisbatan yuqori sezuvchanligi ham epidemik jarayonning murakkablashuviga olib keladi. Chunki ayollar erkaklarga nisbatan OIV-infeksiyasiga yuqori biologik sezuvchanlikka ega bo'lib, bu anotomo-fiziologik xususiyatlar, gormonal o'zgarishlar, reproduktiv salomatlik muammolari, homiladorlik davri hamda jinsiy yo'l bilan yuqadigan infeksiyalar bilan birga kechishi bilan izohlanadi.



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

O'zbekiston Respublikasida ham OIV-infeksiyasining tarqalish dinamikasi so'nggi yillarda ma'lum darajada o'zgarib bormoqda. Xususan, kasallikning ayollar orasida aniqlanish holatlarining ortib borishi epidemiologik vaziyatni chuqur ilmiy tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Mamlakatda OIV-infeksiyasiga qarshi kurashish bo'yicha qator davlat dasturlari amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, ayollar orasida kasallikning tarqalish xususiyatlarini kompleks o'rganish, xavf omillarini aniqlash va profilaktika choralari takomillashtirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, O'zbekiston sharoitida OIV-infeksiyasi epidemik jarayonning feminizatsiyasini o'rganishda mavjud muammolarni aniqlashga hamda samarali profilaktik zamonaviy chora-tadbirlarini ishlab chiqishga qaratilgan. Shu jihatdan tadqiqot ishining natijalari sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, ayollar salomatligini muhofaza qilish va infeksiya tarqalishining oldini olishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

ADABIYOTLAR SHARHI VA METODOLOGIYASI: Jahon Sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra OIV/OITS pandemiyasining dastlabki yigirma yilligidan farqli o'laroq, bugungi kunda butun dunyo bo'ylab OIV bilan yashayotgan kattalarning yarmini ayollar tashkil etadi. 2023 yilda dunyoda OIV-infeksiyasi bilan kasallanganlar soni 39,9 million kishiga yetgan [36,1–44,6 million], ularning 53% ayollar va qizlarga to'g'ri kelmoqda [1,4].

OIV/OITS epidemiyasining kuchayishi aholi salomatligi uchun jiddiy oqibatlariga olib keladi va demografik jarayonlarga, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda [2, 10].

Migratsiyaning mamlakatlarga kirib kelishi va joylarda OIV-infeksiyasi epidemik tarqalishiga ta'siri turlicha bo'lib, vaqt o'tishi bilan o'zgarib kelgan. Epidemiyaning dastlabki bosqichida odamlar harakatini cheklash yangi kasallik haqida yetarli bilim saviyasiga ega emasligi va undan qo'rqish bilan izohlanishi mumkin edi. Keyinchalik esa ko'plab davlatlar bunday taqiqlarga emas, balki kasallikni aniqlash, davolash va maqsadli profilaktikaga e'tibor qaratish zarurligini anglab yetdi. OIV musbat chet elliklarga cheklanmagan muddat yashashga ruxsat berilishi, asosan, sog'liq uchun xavfdan ko'ra, moliyaviy va iqtisodiy xatarlarni keltirib chiqaradi. Bu esa migrantlarga OIV-infeksiyasi bilan bog'liq maxsus tibbiy yordam ko'rsatish masalalarining yetarlicha ishlab chiqilmagani bilan bog'liq. Muammoni hal etish yo'lidagi qadamlardan biri Rossiya va yaqin xorij mamlakatlari o'rtasida OIV musbat migrantlarga oid bo'lgan qonunchilikni uyg'unlashtirish kerak. Rossiya Federatsiyasida fuqarolar orasida OIV bilan kasallanganlar sonining ortib borayotganini hisobga olsak, hozirgi siyosatning samaradorligi past ekanini aytish mumkin. Epidemiyaning oldini olish uchun asosiy e'tibor avvalo mamlakat aholisi orasida kompleks profilaktik chora-tadbirlarga qaratilishi lozim. Bu esa infeksiyaning ham chet elliklardan ham o'z fuqarolaridan yuqish ehtimolini kamaytiradi [9].

Aholining turmush darajasi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya bo'lib, u kishilarning moddiy va madaniy-maishiy ehtiyoji qondirilishi va ijtimoiy turmush sharoiti yaxshilanib borishi kabi tushinchalarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, daromadlar uning xarajatlariga nisbatan qancha ko'p bo'lsa, aholi turmush darajasini oshirish imkoniyatlari shuncha yuqori bo'ladi. Demak ijtimoiy turmush darajasining pastligini belgilovchi omillarga: asosan qishloq joylarda aholining yetarli bilim va malakaga ega emasligi va natijada ishsizlikning kelib chiqishi; nosog'lom turmush tarzi; kambag'allik kabilar kiradi. Olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari davomida OIV-musbat va OIV-manfiy bo'lgan respondentlarning tahlilda OIV-manfiy respondentlar infeksiyaning yuqish yo'llari,



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

xavf omillari haqida bilim darajasining pastligi sababli OIV-infeksiyani yuqishtirish ehtimoli yuqori ekanligi isbotlangan [3,5].

Formativ tadqiqot –suhbat natijalari asosida o‘tkazilgan anonim so‘rovnoma natijalariga ko‘ra OIV-infeksiyasi aniqlangan homilador ayollarga «Siz OIV-infeksiyasini kimdan (qaysi manbalardan) yuqtirganligingizni bilasizmi?» degan savolga quyidagi javoblar olingan. So‘rovnomada qatnashgan respondentlarning $44,0 \pm 7,1\%$ «turmush o‘rtog‘imdan», $34,0 \pm 6,8\%$ «doimiy bo‘lmagan jinsiy sherigimdan», $14,0 \pm 5,0\%$ «sobiq erimdan», $2,0 \pm 2,0\%$ kasallikni qanday yuqtirganini bilmaydi va $6,0 \pm 3,4\%$ notibbiy parenteral yo‘l orqali «tatuaj, manikyur va pedikyur» kosmetik muolajalar vaqtida sterillanmagan asboblardan deb javob berishgan ($p < 0,05$). Zamonaviy OIV-infeksiyasining feminizatsiyasida ayollarning go‘zallikka intilishi tufayli shaxsiy ehtiyojiga aylangan go‘zallik salonlaridan har xil notibbiy ya‘ni tatuaj, manikyur, pedikyur kabi kosmetologik muolajalarga bo‘lgan muhtojligi oshib borayotganligi sababli sterillanmagan vositalarni qo‘llashi natijasida kasallikni o‘zlariga yuqtirib olayotganligini aniqlangan [5,7].

2022-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha jami OIV-infeksiyasining yuqish yo‘llari bo‘yicha tahlil natijalarida $65,4 \pm 0,24\%$ ni jinsiy yo‘l orqali yuqish tashkil etgan. So‘nggi yillarda epidemiologik surishtiruv davomida OIVning jinsiy yo‘l orqali ko‘proq tarqalayotganligi o‘z tasdig‘ini topmoqda. Hozirgi kunga kelib yangi aniqlangan OIV-infeksiyasi asosan aholi guruhlarining mehnatga layoqatli bo‘lgan yoshdagilar orasida o‘sish sur‘ati keskin oshganligi kuzatilmoqda. Ayollar orasida kasallikning parenteral yo‘l bilan yuqishining bir xilda kamayishi fonida jinsiy yo‘l bilan yuqish yildan yilga doimiy ravishda o‘sganligini kuzatish mumkin [8]. Tadqiqotni amalga oshirishda epidemiologik tahlil (retrospektiv), statistik usullar (trend tahlili regressiya tenglamasi) va so‘rovnoma usulidan foydalanildi.


NATIJALAR: O‘zbekiston Respublikasida 2000–2024 yillarda OIV-infeksiyasi yangi aniqlangan kasallanishlar sonining retrospektiv epidemiologik tahlili (1000 aholi soniga nisbatan intensiv ko‘rsatkich) tahlili bo‘yicha 1-rasmda keltirilgan ma‘lumotlarda 2000-yilda atigi 527 ming kishi tekshirilgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib bu ko‘rsatkich 5,7 milliondan oshgan (ya‘ni 10 barobardan ko‘proqqa o‘sgan).



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida 2000–2024 yillarda OIV infeksiyasi yangi aniqlangan kasallanishlar sonining retrospektiv epidemiologik tahlili (1000 aholi soniga nisbatan intensiv ko'rsatkich)


Ayniqsa 2009-yildan boshlab tekshiruvlar soni tizimli ravishda ko'payib borgan. OIV-infeksiyasi bilan kasallanish darajasi 2000–2009 yillarda aniqlanishining o'sish davriga to'g'ri kelmoqsa xususan 2009-yilda aniqlanganlar soni ilk bor 4016 nafarga oshgan. 2010-yildan (3795 nafar) – 2019 (3983 nafar) yilgacha davriy kasallanish ko'rsatkichlari nisbatan barqarorlashgan. 2020-yilda mamlakatimizda COVID-19 pandemiyasi davridagi karantin cheklovlari va tibbiy resurslarning boshqa sohaga yo'naltirilgani bois aniqlanishlar soni keskin pasaygan (2817 nafar) kuzatilgan. Bu katta ehtimol bilan bog'liq. So'nggi yillarda 2021 (3289 nafar) – 2024 (3903 nafar) yillarda OIV-infeksiyasi bilan kasallanish dinamikasi pandemiyadan oldingi darajaga qaytgan. Retrospektiv epidemiologik tahlil natijalarida kasallanish dinamikasida pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda, biroq trend chiziqlar ko'rsatilgan davr mobaynida yangi aniqlangan bemorlar orasida o'sish tendensiyasi yuqoriligidan dalolat beradi. Grafikda trend chizig'i uchun chiziqli tenglama keltirilgan $y=115,03x+1595,5$ matematik model (regressiya) tenglamasi quyidagilarni anglatadi: har yili OIV aniqlanganlar soni o'rtacha 115 nafarga ko'payib borishini bildiradi, 1595,5 esa boshlang'ich nuqta hisoblanadi.



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740



2-rasm. OIV-infeksiyasining yuqish yo'llari bo'yicha retrospektiv epidemiologik solishtirma tahlili (2004-2023 yy.) (%)

OIV-infeksiyasining yuqish yo'llari bo'yicha retrospektiv epidemiologik tahlil natijalariga ko'ra, dastlabki yillarda parenteral yuqish yo'li (diagrammada ko'k rang) orqali yuqish ko'proq aniqlangan va 65,6%ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2011-yilda keskin tushib, 2012-yildan boshlab doimiy ravishda pasaygan. 2023-yilda bu ko'rsatkich 12%ni tashkil qilgan. Trend chizig'i ham epidemik jarayonning kamayish tendensiyasini ko'rsatmoqda. Bu holat xavfsiz in'yeksiya tamoyillariga asoslangan chora-tadbirlarning kuchaytirilganligi bilan izohlanadi. Parenteral yo'l orqali yuqish 2008-yilda 7,2% bo'lgan, lekin 2009-yilda 18,1% ga keskin ko'tarilgan — bu katta sakrash bo'lib, epidemik chaqnash belgilari bilan tavsiflanadi.

Jinsiy yo'l orqali yuqish (diagrammada qizil rang) ko'rsatkichlari esa 2004 yilda 6,8% ni tashkil qilgan bo'lsa, 2023 yilda u 81,3% gacha ko'tarilgan. Bu yuqish yo'li 2012 yildan boshlab eng asosiy yo'lga aylangan. Trend chizig'i jinsiy yo'l orqali yuqishni epidemiologik prognozida o'sish tendensiyasining barqaror bo'lishidan dalolat bermoqda. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy nazoratning pastligi, jinsiy tarbiya haqida profilaktik chora-tadbirlarning sustligi bilan izohlanadi.

Yuqish yo'li noaniq (diagrammada sariq rang), OIV-infeksiyasida inkubatsion davrning uzoqligi sababli epidemiologik nuqtai nazardan muhim ahamiyatga ega. Yillik dinamikada kasallanish ko'rsatkichlari o'zgargan, 2009-yilda kasallanish ko'rsatkichi 18,1%ni tashkil etgan. 2023 yilda bu



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

ko‘rsatkich 6,3%ni tashkil qilgan. Trend chizig‘i epidemik jarayonning biroz epidemik barqaror ekanligini ko‘rsatdi.

Vertikal yuqish yo‘li (diagrammada kul rang) hukumatimiz tomonidan ona va bola salomatligini muhofaza qilish, OIVning perinatal profilaktikasiga doir chora-tadbirlarning samarasi hamda reproduktiv salomatlikni saqlashda davlat siyosatining strategik tamoyillari natijasida kasallanish ko‘rsatkichlari 0,2%dan oshmaydi. OIV-infeksiyasining epidemik tarqalishi bo‘yicha tasnifiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi konsentrlangan bosqichda umumiy kasallanishlar soni kamaymagan holda saqlanib turibdi. Vertikal yo‘l orqali yuqish 2005-yildan beri faqatgina 0–0,7%ni, 2023-yilda 0,4%ni tashkil qilgan. Trend chizig‘i deyarli gorizontal holatda epidemik holat barqaror ekanligi homilador ayollarni OIVga majburiy tekshiruvga qamrab olinishi, skrining va RVQD sodiqligini epidemiologik nazorat qilishning muntazam kuchaytirilganligi bilan bog‘liq (2-rasmga qarang).

Ma‘muriy hududlar	2018		2019		2020		2021		2022		2023		2024	
	e	a	e	a	e	a	e	a	e	a	e	a	e	a
Markaziy														
Toshkent sh.	30,6	21,5	31,2	21,5	21,9	13,4	26,2	12,3	23,3	12,3	22,4	11,0	21,6	8,8
Toshkent vil.	19,5	17,6	19,9	16,5	14,6	12,9	18,0	14,0	24,2	17,6	22,7	17,8	23,2	16,1
Sirdaryo	20,6	19,1	16,5	14,4	14,6	12,3	13,2	13,2	15,1	12,3	16,9	12,8	15,5	9,9
Janubiy														
Qashqadaryo	5,9	4,4	6,9	4,1	4,5	3,1	6,4	3,4	8,0	3,8	9,4	4,9	9,7	5,0
Surxondaryo	12,2	9,2	8,9	7,5	7,0	6,2	7,3	5,6	8,8	7,3	12,3	6,7	11,1	6,3
Shimoliy														
Xorazm	17,3	10,4	15,6	14,1	12,2	9,7	12,1	8,1	13,9	10,0	11,6	8,5	16,4	9,0
QQ. Res.	8,3	5,7	7,6	4,5	4,9	3,8	5,8	4,4	7,1	4,1	7,0	4,5	7,8	5,3
Sharqiy														
Andijon	18,6	15,1	20,2	15,6	10,8	7,8	12,7	10,7	14,9	11,0	14,0	9,4	14,9	10,4
Farg‘ona	10,0	7,1	11,6	6,9	7,4	5,1	9,6	5,6	12,6	6,8	6,9	13,0	11,8	6,7
Namangan	6,7	5,2	7,6	4,7	6,5	4,3	7,7	4,4	11,6	6,9	10,2	5,8	9,0	6,2
G‘arbiy														
Navoyi vil.	4,3	3,3	6,8	4,5	4,7	3,2	5,7	2,7	5,8	2,1	6,5	3,1	6,2	3,4
Buxoro vil.	12,3	7,3	11,8	5,6	6,3	3,5	11,5	4,6	9,7	6,0	10,8	7,9	10,9	6,6
Jizzax vil.	5,0	7,2	7,7	6,6	7,3	4,0	7,0	4,9	7,7	4,6	8,5	5,6	10,8	4,7
Samarqand	13,1	11,3	12,8	10,0	9,3	6,0	11,0	7,9	12,5	9,5	13,1	9,0	11,9	9,0
Jami O‘zb.Res.	13,3	10,4	13,5	9,9	9,4	6,8	11,3	7,4	13,3	8,7	12,5	9,0	13,2	8,0

OIV-infeksiyasi jins, ijtimoiy holat va millat tanlamaydi. O‘zbekiston Respublikasida OIV-infeksiyasi tarqalishining retrospektiv epidemiologik tahlili 2018-yilda kasallanishlarning epidemik tarqalish dinamikasi o‘zgaruvchan xususiyatga ega bo‘lib, 100 ming aholi soniga nisbatan intensiv ko‘rsatkichlar erkaklar orasida 13,3, ayollar orasida esa 10,4 ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib ushbu raqamlar mos ravishda 13,2 va 8,0 ni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkichlar uzoq muddatli tahlilda kasallanish intensivligi jinslar bo‘yicha turlicha ekanligini tasdiqlaydi (1-jadvalga qarang).



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

1-jadval

2018-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasida yangi aniqlangan OIV-infeksiyasi bilan kasallanishning geografik kesimda gender tafovut tahlili (100 ming aholi soniga nisbatan intensiv ko'rsatkich)

Retrospektiv epidemiologik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, tadqiqot mobaynida erkaklar orasida OIV-infeksiyasi kasallanish intensivligi ayollarga nisbatan doimiy ravishda barqaror yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Gender tafovut esa 2024-yil yakunlariga ko'ra, erkaklar orasida kasallanish ko'rsatkichi ayollarnikiga nisbatan 1,6 barobarga yuqori ekanligi qayd qilingan. Ushbu tahlil natijalariga ko'ra ayollar orasida jinsiy yo'l orqali OIV-infeksiyasini yuqtirishda kasallik manbai va tarqalish tendensiyasini epidemik harakatlantiruvchi asosiy kontingent erkaklar ekanligi aniqlandi.

Epidemik jarayonning rivojlanishi geografik hududlar kesimida quyidagicha farqlanadi:

- OIV-infeksiyasi bilan kasallanishning eng yuqori intensiv ko'rsatkichlari markaziy hududlardan Toshkent shahri va Toshkent viloyatida qayd qilingan. Ayniqsa Toshkent shahrida 2024-yilda erkaklar orasida aniqlanish ko'rsatkichlari 100 ming aholi soniga nisbatan 21,6ni tashkil etib, Respublika bo'yicha o'rtacha kasallanish darajasidan sezilarli yuqori ekanligi aniqlandi.
- OIV-infeksiyasining epidemik tarqalganligi bo'yicha xavfli hududlarga kiruvchi viloyatlar Xorazm (erkaklar 16,4), Andijon (14,9) va Samarqand (11,9) viloyatlariga to'g'ri kelgan bo'lib, ular epidemik jarayon rivojlanishi jihatidan «eng xavfli hududlar» ekanligi aniqlandi.
- Epidemik jarayon barqaror o'suvchi hududlar: Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida dastlabki yillarga (2018-y.) nisbatan 2024-yilga kelib ko'rsatkichlarning o'sishi (mos ravishda 5,9 dan 9,7 gacha va 12,2 dan 11,1 gacha) kuzatilgan.

OIV-infeksiyasi tarqalishining hududiy va jins bo'yicha nomutanosibligi bir qator ijtimoiy-tibbiy omillarga bilan bog'liq ekanligi aniqlandi. Bunda Toshkent shahri va Andijon viloyatida aholi zichligi va urbanizatsiya, tashqi va ichki migratsiyaning faollashuvi kasallanishning geografik o'choqlarini kengaytirmoqda. O'tkazilgan tahlil natijasida O'zbekiston Respublikasida OIV-infeksiyasi bo'yicha epidemik vaziyat hududlarning demografik xususiyatlariga ko'ra turlicha shakllanayotgani aniqlandi. Erkaklar orasidagi yuqori intensivlik va ayollar orasidagi pasayish tendensiyasi profilaktik chora-tadbirlarni jinsga «genderga yo'naltirilgan yondashuv» tamoyili asosida reproduktiv salomatlik xizmatlari bilan integrallashgan profilaktika modelini ishlab chiqishni taqozo etadi. Ayniqsa, Toshkent shahri, Xorazm va Samarqand kabi migratsiya faol hududlarda tizimli epidemiologik nazoratni kuchaytirish strategik ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.


Epidemik jarayonning intensivligini belgilovchi muhim omillardan biri bu bemorlarning yosh ko'rsatkichlari hisoblanadi, 2-rasmda keltirilgan ma'lumotlarda 2025-yil 1-yanvar holatiga jami OIV-infeksiyasi bilan yashovchi ayollarning yoshlari bo'yicha tahlilida (%) (n=22822) eng yuqori ko'rsatkichlar aholining mehnatga layoqatli bo'lgan reproduktiv yosh guruhlar orasida ya'ni 40-49 yoshdagilar 34%ni 30-39 yoshlilar 24,9% ko'proq aniqlangan.



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740



2-rasm. O‘zbekiston Respublikasida 01.01.2025 holatiga jami OIV-infeksiyasi bilan yashovchi ayollarning yoshlari bo‘yicha tahlili (%) (n=22822)

Tahlil natijalarida 50 yoshlilar 13,8%ni, 18-24 yoshdagilar 13,5%ni, 60 yosh va undan kattalar 5%ni, 25-29 yoshlilar 5,1%ni tashkil etgan bo‘lsa 15 yosh va undan kichik yoshlilarda deyarli kam kuzatilgan.

MUHOKAMA: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi PQ14-son bilan tasdiqlangan «Aholi orasida OIV infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga doir 2023-2027 yillarga mo‘ljallangan kompleks chora-tadbirlar dasturi» qaroriga muvofiq Birlashgan Millatlar Tashkilotining OIV infeksiyasi epidemiyasiga barham berishni ko‘zda tutuvchi “95-95-95” strategiyasi doirasida OIV infeksiyasini yuqtirib olgan shaxslarning 95 % o‘z maqomini bilishiga erishish maqsadida davolash-profilaktika muassasalarida klinik ko‘rsatmalar asosida bemorlarni OIVga ixtiyoriy tekshiruvlar bilan qamrab olish hamda aholi o‘rtasida OIV infeksiyasini erta aniqlash va profilaktik tadbirlar olib borish, OIV bilan yashovchi shaxslarni davolash bilan qamrab olish darajasini 95 %ga yetkazish maqsadida ularni retrovirusga qarshi dori vositalari bilan uzluksiz ta‘minlash hamda ulardan 95% qonida virus yuklamasini aniqlanmaydigan darajaga tushirish rejalashtirilgan.

XULOSA: Ayollar orasida OIV-infeksiyasining epidemik tarqalish tendensiyasi hududiy va jinslar bo‘yicha nomutanosibli bir qator ijtimoiy-tibbiy omillarga bilan bog‘liq ekanligi aniqlandi. O‘tkazilgan tahlillar natijasida O‘zbekiston Respublikasida OIV-infeksiyasi bo‘yicha epidemik vaziyat hududlarning demografik xususiyatlariga ko‘ra turlicha shakllanayotgani aniqlandi. Erkaklar orasidagi yuqori intensivlik va ayollar orasidagi pasayish tendensiyasi profilaktik chora-tadbirlarni jinsga «genderga yo‘naltirilgan yondashuv» tamoyili asosida reproduktiv salomatlik xizmatlari bilan integrallashgan profilaktika modelini ishlab chiqishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

1. Abdool Karim Q., Sibeko S., Baxter C. Preventing HIV infection in women: a global health imperative//Clin Infect Dis.2010.– 15;50 Suppl 3(Suppl 3):S122-9. doi: 10.1086/651483.
2. Беляков Н.А. Опасность или реальность распространения новой волны эпидемии ВИЧ-инфекции на северо-западе РФ. // ВИЧ-инфекция и иммуносупрессии. – 2016. – Т.8, №1. – С.73 – 82.
3. Bayramovna K.I. The Importance Of Studying The Epidemiological Characteristics Of Hiv Infection Among Women By Age //Emerging Frontiers Library for The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research. – 2025. – Т. 7. – №. 11. – С. 90-95.
4. Глобальная статистика по ВИЧ: информационный бюллетень. // [электронный ресурс] на <https://www.unaids.org/ru/resources/fact-sheet>
5. Kalniyazova I.B. Homilador ayollar orasida OIV-infeksiyasi tarqalishining epidemiologik tavsifi va profilaktikasini takomillashtirish yo'llari. Monografiya. Toshkent. 2024. – B.58-82.
6. Kalniyazova I. B. MODERN EPIDEMIOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE SPREAD OF HIV INFECTION AMONG WOMEN //Журнал гуманитарных и естественных наук. – 2025. – №. 20. – С. 73-78.
7. Мавлянов Ж. А., Калниязовой И. Б. ЭПИДЕМИОЛОГИЯ РАСПРОСТРАНЕННОСТИ ВИЧ-ИНФЕКЦИИ В СЕРОДИСКОРДАНТНЫХ ПАРАХ (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ) //UNIVERSAL JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES. – 2026. – Т. 4. – №. 33. – С. 85-89.
<https://sr-journals.org/index.php/UJMANS/article/view/987>
8. Matnazarova G.S., Kalniyazova I.B., Raxmanova J.A. // Xavfli guruhlarda OIV – infeksiyasi tarqalishining epidemiologik xususiyatlari va oldini olish chora tadbirlari. Toshkent tibbiyot akademiyasi «Yosh olimlar tibbiyot jurnali»№ 5 (01), 2023. Toshkent. b.36-42.
9. Покровская А.В., Юмагузин В.В., Киреев Д.Е., Винник М.В., Покровский В.В. // Влияние миграционных процессов на ситуацию по ВИЧ-инфекции (аналитический обзор). Вестник РАМН. — 2019. — Т.74. — №2. — С. 88–97. <https://cyberleninka.ru/article/n/vliyanie-migratsionnyh-protsessov-na-situatsiyu-po-vich-infektsii-analiticheskiy-obzor>.
10. Сайфиддин Х. К. Ш., Курбанбаева Б. Р., Калниязова И. Б. ЭПИДЕМИЧЕСКАЯ СИТУАЦИЯ ПО РАСПРОСТРАНЕННОСТИ ВИЧ-ИНФЕКЦИИ СРЕДИ ЖЕНЩИН В УЗБЕКИСТАНЕ (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ). – 2025.